

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABSAMADOVA MUNIRA ISROILOVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DIPLOMATIK TERMINLARNING
LISONIY IFODALANISHI VA QIYOSIY TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
in Philology**

Absamadova Munira Isroilovna

О‘zbek va ingliz tillarida diplomatik terminlarning lisoniy ifodalanishi va qiyosiy tahlili..... 3

Абсамадова Мунира Исроиловна

Лингвистическое выражение и сопоставительный анализ дипломатических терминов в узбекском и английском языках 25

Absamadova Munira Isroilovna

Linguistic expression and comparative analysis of diplomatic terms in Uzbek and English languages..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABSAMADOVA MUNIRA ISROILOVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DIPLOMATIK TERMINLARNING
LISONIY IFODALANISHI VA QIYOSIY TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.PhD/Fil4388 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdhti.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Salieva Zarrina Ilxomovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sulaymanova Nilufar Jabborovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sayfullayev Anvar Islamovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi №__ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugungi globallashtirish davrida turli mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar takomillashuvining ahamiyati tobora dolzarblashib bormoqda. Rasmiy ishbilarmonlik uslubining xalqaro muloqotda muhim o'rin tutuvchi maxsus shakli diplomatik diskurs, ayniqsa rasmiy diplomatik aloqalarni yuritish hamda xalqaro shartnomalarni tuzish jarayonlarida faol qo'llanilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikning ilg'or ilmiy paradigmalariga tayanib, olamning siyosiy manzarasini aks ettiruvchi diplomatik munosabatlarga oid tarixiy hamda hozirgi davrga oid manbalarni lisoniy jihatdan ochib berish ahamiyatli hisoblanmoqda. Diplomatiq aloqalar va diplomatik diskursga oid leksik birliklarning har tomonlama ilmiy tahlili asosida olingan natijalarni xalqaro muloqot amaliyotiga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida sohalarga oid leksikani o'rganish, uni tartibga solish hamda xalqaro munosabat sohasiga xos so'z va terminlarni baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ma'lumki, terminlar leksik qatlamga tez va oson o'rnashib, nafaqat til taraqqiyoti uchun, balki uning ijtimoiy-funksionol xususiyatlarining takomillashuviga ham sabab bo'ladi. Shu bois, zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida diplomatik terminlarning tarixiy-etimologik shakllanishi, leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini yoritish orqali uning muayyan til leksikasida tutgan o'rnini belgilash, diplomatik muloqotning lingvistik jihatlarini chuqur o'rganish va diplomatik terminlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama anglash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi muhim vosita sifatida til ta'limi va uning ilmiy tadqiqi alohida e'tibor kasb etmoqda. Shu bilan birga, globallashtirish ko'p tilli muhitda ingliz tilining o'rnini va uni targ'ib etish bilan bog'liq umumiy masalalar, shuningdek, uni samarali o'qitishning aniq muammolariga nisbatan ilmiy va amaliy e'tiborning ortishiga sabab bo'lmoqda. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"¹. Shu sababli tilimizga o'zlashayotgan terminlarni o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida ko'rib chiqish, muqobilini tanlash asosiy vazifalarimizdan biriga aylanmoqda. Natijada o'zbek va ingliz diplomatik leksikasini o'rganish hamda ushbu sohaga oid lisoniy birliklarning xususiyatlarini tahlil qilish bo'lajak diplomatlar, huquqshunoslar, iqtisodchilar, jurnalistlar va tarjimonlarni kasbiy tayyorlash jarayonida, shuningdek, ushbu ikki tilni o'qitish, amaldagi diplomatlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va diplomatik sohadagi og'zaki hamda yozma tarjima faoliyatini samarali amalga oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг 30 йиллиги муносабати билан сўзланган нутқ // Халқ сўзи, № 218-сон, 22.10.2019.

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda qator boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularnin amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiya muammolari bir qator tilshunoslar, xususan D.S. Lotte, V.P. Danilenko, T.L. Kandelaki, V.M. Leychik, V.G. Gak, O.S. Axmanova, A. Superanskaya, I.I. Borisenko, M. Cabre, H. Felber² va boshqa terminshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida terminlarning xususiyati S. Akobirov, O. Ahmedov, E. Begmatov, H. Dadaboyev, R. Doniyorov, G‘. Ismailov, A. Hojiyev, A. Ishayev, A. Madvaliyev, M. Mirtojdiyev, O. Usmonov, M. Abdiyev, D. Xudoyberganova³ va bir qator tadqiqotchilarning ishlarida ko‘zga tashlanadi.

² Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии // Вопросы теории и методики. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 45-48; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического анализа. – М.: Наука, 1977. – 246 с.; Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с.; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: КомКнига, 2006. – 256 с.; Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки) // Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ, 1972. – С.68 -71; Ахманова О.С. Словарь омонимов русского языка. 3е изд-е. – М.: Русский язык, 1986. – 448 с.; Суперанская А.В. Общая терминология: вопросы теории. 6-е изд. – М.: Либроком, 2012. – 248 с.; Борисенко И.И., Евтушенко Л.И. Английский язык в международных документах. – М.: Славянский дом, 2003; Cabre M. Terminology: Theory, Methods and Applications. Ed. Juan C. Sager. – Amsterdam: Benjamins, 1998; Felber H. Terminology. Manual. – Paris: Presses universitaires de France, 1984. – 234 p.

³ Akobirov S. Til va terminologiya. – Toshkent: O‘zbekiston KP MKning birlashgan nashriyoti, 1968. – 40 b.; Axmedov. O.S. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari. Filol. fanlari dokt... dis avtoref. – Toshkent, 2016. – 19 b.; Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlami. – Toshkent: Fan, 1985. – 82 b.; Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – 118 b.; Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 159 b.; Ismailov G‘. O‘zbek tili terminologik tizimida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 26 b.; Hojiyev A. Termin tanlash mezoni. – Toshkent, 1996. – 126 b.; Ishayev A. Terminologiyamizning rivojlanishida o‘zbek shevalarining o‘rni // O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. – Toshkent: Fan, 1986. – B. 78-84; Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikologiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 384 b.; Mirtojdiyev M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2000. – 424 b.; Usmonov O., Sh. Hamidov Sh. O‘zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari). – Toshkent: Fan, 1981. – 114 b.; Abdiyev M. Sohaviy terminologiyaning sistem tahlili muammolari. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

Terminologiya sohasi bo'yicha tadqiqot olib borgan olim H. Dadaboyevning "O'zbek terminologiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida o'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari, leksik-genetik, derivatsion hamda grammatik xususiyatlari to'liq yoritib berilgan.

Diplomatik terminlarning xususiyatiga kelsak, bu borada amalga oshirilgan ishlar soni sanoqlidir. Jahon tilshunosligida N.F. Naser, V.P. Yegorov, V.I. Popov, M.V. Belyakov, E. Abdurahmanali, X.A. Saidov⁴ diplomatik terminologiyaning xususiyatlarini o'rganishgan. O'zbek tilshunosligida S.D. Mavlyanov "O'zbek diplomatik terminlari" mavzusida ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirdi⁵. Tadqiqotchi hozirgi o'zbek tili diplomatik terminlarining struktur-semantik munosabatlari va xususiyatlari, lug'atlarda berilish hamda "O'zbek tili diplomatiya terminlarining izohli lug'ati"da aks ettirilish imkoniyatlarini ochib bergan. J. Safarovning nomzodlik dissertatsiyasida diplomatiya sohasida keng qo'llaniladigan frazeologik birikmalarning leksik-semantik xususiyatlari va ularning kognitiv tahlili amalga oshirilgan⁶.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni anglatadiki, hozirgi kungacha o'zbek va ingliz tillaridagi diplomatik leksik qatlamning tarkibiy tuzilishi, semantik tizimi, grammatik va derivatsion xususiyatlari qiyosiy-lingvistik nuqtai nazardan yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Mazkur masalaning dolzarbligiga qaramay, bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar soni juda cheklangan bo'lib, mavjud ilmiy ishlarda ham asosan ayrim leksik birliklarning tahlili bilan cheklanilgan. Shu bilan birga, P. Nishonov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda fransuz va o'zbek tillarining diplomatik sohaga oid leksikasining shakllanish jarayoni, ularning tuzilish xususiyatlari va lingvistik omillar ta'sirida yuzaga kelgan farqlari o'rganilgan bo'lib, bu yo'nalishda muhim ilmiy asos yaratishga xizmat qilgan⁷. Sh.A. Xasanova fransuz va o'zbek tillarida diplomatik terminlar yasalishining bir nechta usulini aniqlagan⁸. Zotan, bugungi kunda davlatlararo hamkorlik ishlari tobora jadallashib borayotgan bir paytda, tilshunoslik sohasida diplomatik diskurs masalasi hamon yetarlicha o'rganilmaganligining guvohi bo'lish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya

2004. – 187 b.; Xudayberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – 160 b.

⁴ Насер Ф.М. Дипломатическая терминология русского языка и ее семантизация в учебном двуязычном словаре. Дисс... канд. филол. наук. – Воронеж, 2013. – 197 с.; Егоров В.П. Дипломатический протокол и этикет: учеб. пособие. – М.: Юридический институт МИИТа, 2013. – 200 с.; Попов В.И. Современная дипломатия: теория и практика. Часть 1: Дипломатия – наука и искусство. – М.: «Научная книга», 2000. – 576 с.; Беляков М.В. Терминология дипломатии: лексикографические проблемы // Вестник РУДН, серия Теория языка. Семиотика. Семантика. – Москва: МГОУ, 2012. № 2. – С. 83-93; Abdurahmanali E. Definition of diplomacy and types of diplomacy used between states // Anadolu Akademi Sosyal Bilimler Dergisi. – Istanbul, 2021. – P. 580-603; Saidov X.A. Дипломатическая терминология в таджикском и английском языках. Дисс ... док. филол. наук. – Душанбе, 2013. – 366 с.

⁵ Mavlyanov S.D. O'zbek tili diplomatik terminlari. F.f.d... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 56 b.

⁶ Сафаров Ж. Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеологический состав (на материале английского языка). Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Самарканд, 2000. – 54 с.

⁷ Nishonov P.P. Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy tipologik tadqiqi. Filol. fanlari nomzodi... dis. avtoref. – T., 2009. – 25 b.

⁸ Xasanova Sh.A. O'zbek va fransuz tillarida hosil bo'lgan diplomatik terminlarining o'ziga xos xususiyati // So'z san'ati xalqaro jurnali. – Toshkent, 2019. – B. 67-72.

Samarqand davlat chet tillar institutining “Til va nutq tizimida lisoniy birliklarning tahlili” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi diplomatik terminlarning leksik-semantik va struktural xususiyatlarini o‘rganish, diplomatik diskursda ularning faollashuvini hamda terminlarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va ingliz tillaridagi diplomatik terminlarning tarixiy shakllanish jarayonini o‘rganish, ularning terminologiya sohasidagi o‘rnini tahlil qilish va shu bilan birga, ushbu terminlarning diplomatik diskurs va yozishmalar kontekstida lisoniy faolligini ochib berish;

hozirgi o‘zbek va ingliz tillaridagi diplomatik terminlarning tipologik tuzilishini, tematik ahamiyatini, grammatik va stilistik xususiyatlarini kontekstual yondashuv asosida aniqlash;

o‘rganilayotgan tillar diplomatik terminlarining lisoniy jihatdan o‘xshash va differensial xususiyatlarini hamda ularning lingvistik va ekstralingvistik omillarini ichki va tashqi munosabatlar diplomatiyasi doirasida isbotlash;

diplomatik terminlarni tarjima qilish masalalarini o‘rganish, tarjima muammolariga oid tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va ingliz tillarining diplomatiya sohasida faol qo‘llaniladigan maxsus (diplomatik, siyosiy, huquqiy) lug‘atlar va ensiklopediyalar, izohli va etimologik lug‘atlar, o‘zbek diplomatiyasining xususiyatlarini yorituvchi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari hamda “O‘zbek tili diplomatiya terminlarining izohli lug‘ati”da keltirilgan terminlar qamrab olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va ingliz tillaridagi diplomatik terminlarning semantik va strukturaviy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda sinxron va diaxron, qiyosiy tahlil, komponentli, struktur-semantik, lingvostilistik, kontekstual tahlil va chog‘ishtirma tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillari diplomatik terminlarning grammatik tuzilishini, strukturaviy xususiyatlarini va derivatsion imkoniyatlarini tahlil qilish orqali ularning bir *elchi, bayonot, konsul* kabi bir komponentli va *xalqaro munosabatlar, rasmiy shaxs, diplomatik kanal* singari ko‘p komponentli shakllari aniqlanib, lingvistik, madaniy va ijtimoiy kontekstlarda to‘g‘ri qo‘llanilishi ochib berilgan;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi diplomatik terminlarning semantik jihatdan *shartnoma-treaty* kabi sinonimik, *rasmiy – official – norasmiy – non-official* kabi antonimik, *nota-note* singari omonimlik xususiyatlari asoslangan;

til tizimining ichki strukturasi tashqari, tarixiy, madaniy va siyosiy kontekstlar hamda xalqaro munosabatlar doirasidagi lingvistik va ekstralingvistik o‘zgarishlar ichki va tashqi munosabatlar diplomatiyasi doirasida isbotlangan;

diplomatik terminlarni tarjima qilish jarayoni asosida tarjima faoliyatining ilk bosqichida terminlarni matn kontekstida ajratish, keyin ularning asl ma’nosini aniqlash va tegishli muqobil ekvivalentini tanlash zaruriyati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillari diplomatik diskursida ishlatiladigan terminlar hamda diplomatik yozishmalarning lingvistik xususiyatlari ochib berilgan;

o‘rganilayotgan tillar diplomatik terminlarining derivatsion xususiyatlari, morfologik shakllanishi qiyosiy tarzda o‘rganilgan;

o‘zbek va ingliz tillari diplomatik terminlarining semantik va tarkibiy tuzilishi, xususan, bir komponentlilik, ko‘p komponentlilik xususiyatlari hamda ularni tarjimada berilishi masalalari yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq ifodalanganligi, ishlatilgan yondashuvlar va metodologiyalar, hamda foydalanilgan nazariy asoslarning rasmiy manbalardan olingani bilan ta'minlanadi. Keltirilgan tahlillar tavsifiy, komponentli, distributiv, struktur-semantik, lingvostilistik va kontekstual sharhlash metodlari asosida amalga oshirilgan. Xulosa va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lib, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi kunda xalqaro hamkorlik ishlari, xususan, konsullik, diplomatik, xalqaro huquq sohalarida dolzarb bo‘lib turgan diplomatik terminlarning leksik, semantik-struktur xususiyatlarining izohi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati uning natijalari va xulosalari, shuningdek, unda keltirilgan materiallardan leksikologiya va leksikografiya bo‘yicha maxsus kurslarda, talabalarga o‘zbek va ingliz tillarini o‘qitish amaliyotida hamda diplomatik terminlar lug‘atini tayyorlashda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va ingliz tillari diplomatik terminlarining leksik, semantik, struktur xususiyatlarini aniqlashga doir tadqiqot natijalari asosida:

o‘zbek va ingliz tillari diplomatik terminlarning grammatik tuzilishini, strukturaviy xususiyatlarini va derivatsion imkoniyatlarini tahlil qilish orqali ularning bir elchi, bayonot, konsul kabi bir komponentli va xalqaro munosabatlar, rasmiy shaxs, diplomatik kanal singari ko‘p komponentli shakllari aniqlanib, lingvistik, madaniy va ijtimoiy kontekstlarda to‘g‘ri qo‘llanilishi ochib berilganligi bo‘yicha olingan natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan II-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommuniktsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 16-dekabrda №2778/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada diplomatik terminlar tarjimasi jarayonida dastlab ularni matn doirasida ajratish, so‘ngra uning asl ma’nosini aniqlash va, nihoyat, muqobil shaklini tanlashga oid ko‘rsatilgan tavsiyalar “Qiyosiy tilshunoslik”, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Nazariy grammatika”, “Terminologiya tarjimasi” kabi fanlarning nazariy asoslarini boyitilgan;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi diplomatik terminlarning semantik jihatdan shartnoma-treaty kabi sinonimik, rasmiy – official – norasmiy – non-official kabi antonimik, nota-note singari omonimlik xususiyatlari asoslanganligi hamda ularning tarjima qilinishiga oid natijalardan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetidagi Erasmus + dasturining Project № 598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) grant loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 9-yanvardagi №04/11-897-son ma‘lumotnomasi). Natijada, kognitiv tilshunoslik va tarjimashunoslik kabi fanlarni o‘qitishda hamda mazkur amaliy loyiha bo‘yicha elektron resurslar, bosma darslik uchun manbalar va nazariy hamda amaliy materiallar tayyorlashda aniq manba bilan ta‘minlanishiga erishilgan;

til tizimining ichki strukturasi tashqari, tarixiy, madaniy va siyosiy kontekstlar hamda xalqaro munosabatlar doirasidagi lingvistik va ekstralingvistik o‘zgarishlar ichki va tashqi munosabatlar diplomatiyasi doirasida isbotlanganligiga oid tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan 2024-yil aprel oyi davomida efirga uzatilgan “Diyor yangiliklari” informatsion dasturlarini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 15-iyundagi №01-07/153-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ko‘rsatuvda tadqiqot natijalaridan olingan ingliz va o‘zbek tillari diplomatik terminlarining grammatik, semantik, struktur tuzilishi xususiyatlari tahlili hamda ularni tarjima qilish masalalari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan maktab, litsey, kollej, universitetlarda ta‘lim oluvchilarning ingliz tilining tarjima asoslarini o‘qitish jarayonida foydalanilishi haqida mulohazalar yuritilgan;

diplomatik terminlarni tarjima qilish jarayoni asosida tarjima faoliyatining ilk bosqichida terminlarni matn kontekstida ajratish, keyin ularning asl ma‘nosini aniqlash va tegishli muqobil ekvivalentini tanlash zaruriyati asoslanganligiga oid tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan 2024-yil aprel oyi davomida efirga uzatilgan “Maxsus reportaj” ko‘rsatuvi ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 15-iyundagi №01-07/153-son ma‘lumotnomasi). Natijada diplomatik kommunikativ kompetensiyalarni yozma hamda og‘zaki tarjimada muqobilini qo‘llanilishi, maxsus ssenariylarni ishlab chiqish, sinxron tarjimonlar uchun qulaylik yaratish va ko‘rsatuvlar sifatini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan, 3 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy hajmi 129 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob‘yekti, predmeti va usullari ko‘rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Diplomatik terminlar tadqiqining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi diplomatiya tushunchasi talqini va diplomatik terminlarning shakllanish tarixi, diplomatik diskurs va yozishmalarda ishlatiladigan terminlar xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan.

Diplomatlar va diplomatik faoliyatning roli haqida tilshunos E. Satou quyidagi fikrlarni keltiradi: “davlatlarning diplomatik faoliyatining tabiati va shakllari ba‘zi olimlar va diplomatlarga diplomatiyani davlatlar hukumatlari o‘rtasidagi rasmiy munosabatlarni olib borishda tafakkur va taktikani qo‘llash sifatida belgilashga imkon berdi”⁹. Diplomatiya atamasining yana bir izohi G. Martens tomonidan taklif qilinadi: “diplomatiya – bu davlatning tashqi yoki xalqaro aloqalari haqidagi fan, tor ma‘noda – muzokaralar ilmi yoki san‘atidir”¹⁰. G. Martensning fikrini qo‘llab-quvvatlovchi tilshunos A. Gardiner diplomatiya so‘zining quyidagi ta‘riflarini keltiradi: “diplomatiya – bu davlatlar o‘rtasidagi munosabatlardagi o‘zaro manfaatlar haqidagi fan yoki xalqlar manfaatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish san‘ati, aniqroq ma‘noda – fan yoki muzokaralar san‘atidir”¹¹.

Diplomatiya ko‘p asrlardan beri inson faoliyatining eng muhim va mas‘uliyatli kasb turlaridan biri bo‘lib kelgan va uning qamrovi butun dunyo mamlakatlari hamda xalqlarini o‘z ichiga oladi. Tarixan diplomatiya davlatchilikning, siyosiy va ijtimoiy institutlarning muhim ajralmas qismi hisoblanadi. U uzluksiz harakatda, taraqqiyot va takomillashuv jarayonida¹².

Aksariyat G‘arb diplomatlari diplomatiyani fan emas, balki san‘at deb hisoblab, diplomatning muzokaralar ishtirokchisi sifatida shaxsiy fazilatlariga ustunlik berishadi. Ya‘ni diplomat – o‘zi qaror qabul qilishi mumkin bo‘lgan vakolatli va yuqori malakali mutaxassis ekanligini ta‘kidlashadi.

Diplomatik terminlarning shakllanish tarixiga nazar tashlasak, ko‘plab manbalarda diplomatiya fani dastlab Yunon va Rim davlatlarida paydo bo‘lganligi haqidagi qarashlarga guvoh bo‘lamiz. Diplomatiya faoliyati bilan tanilgan va besh ming yildan ortiq tarixga ega bo‘lgan yana bir mamlakat – bu qo‘shni davlatlar bilan ikki tomonlama turli shartnomalar tuzgan Misr davlati bo‘lib, ushbu

⁹ Сатоеу Э. Руководство по дипломатической практике. Перевод с английского под редакцией и со вступительной статьей А.А. Тряновского. – М.: Госполитиздат, 1947. – 74 с.

¹⁰ Мартенс К. Дипломатия или руководство к познанию внешних государственных сношений. – М.: Семен Селивановского, 1928. – С. 87.

¹¹ Gardiner A. The theory of speech and language. – Oxford, 1932. – P. 12-13.

¹² Kamilov A.X. O‘zbekiston diplomatiyasi tarixi (Qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha). 6-jild. – Toshkent, “O‘zbekiston” nashri, 2019. – B. 3.

mamlakat diplomatik san'atining ba'zi qoidalarini hozirgi davr diplomatiyasi sohasida kuzatish mumkin. O'sha davrdagi diplomatik hujjatlarda davlatlar diplomatiyasi va tashqi aloqalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'plab terminlar ishlatilgan. Ushbu terminlarga quyidagilar kiradi: "*harbiy ittifoq*" ("military union"), "*ikki tomonlama shartnoma*" ("bilateral agreement"), "*ko'p tomonlama shartnomalar*" ("multilateral agreement"), "*vaqtincha shartnoma*" ("temporal agreement") va hokazo.

A.X. Kamilovning "O'zbekiston diplomatiyasi tarixi" nomli kitobida O'zbekistonda diplomatiya barcha zamonlarda o'zbek xalqining boshqa xalqlar bilan tinchlik va murosada, xavfsizlik va barqarorlikda, savdo va iqtisodiy taraqqiyot, o'zaro bir-birini tushunish va do'stlik muhitida yashash vositasi sifatida xizmat qilganligi ta'kidlanadi¹³.

Diplomatik terminlarning shakllanishi va rivojlanishida ilmiy ishlar, risolalar va lug'atlarning roli va o'rnini juda kattadir. Ko'p sonli diplomatik terminlarni o'z ichiga olgan risolalardan biri – bu 1082-1083-yillarda tuzilgan Kaykovusning "Qobusnoma"sidir. Ushbu risolada "*safir*" – "*ambassador*" (*elchi*), "*e'timodnoma*" – "*credentials*" (*ishonch yorlig'i*), "*safir az Rum*" – "*ambassador from the Rome*" (*Rim elchisi*) kabi qadimiy diplomatik terminlar qo'llanilgan.

Taniqli olimlardan biri, yozuvchi, pedagog va diplomat Ahmad Donishning (1827-1897) "Navodir-ul-vaqoye" asarida ko'pgina diplomatik terminlarni uchratish mumkin: "*mamlakat*" – "*country*", "*davlat*" – "*state*", "*safir*" – "*ambassador*", "*hukuk*" – "*law*", "*maukama*" – "*court*", "*vazir*" – "*minister*", "*ra'iyat*" – "*voting*", "*tamaddun*" – "*civilization*" va hokazo¹⁴.

O'zbek tilining diplomatik terminlarining paydo bo'lishining yana bir omili, O'zbekiston Respublikasining milliy mustaqilligini qo'lga kiritishi va keyinchalik tashqi siyosiy faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatgan mintaqaviy, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan xalqaro munosabatlarning shakllanishidir. Turli sohalardagi xalqaro shartnomalar va bitimlar xalqaro maydonda millatlararo munosabatlarni shakllantirish uchun barqaror poydevor yaratdi. Shuningdek, ba'zi atamalar va iboralarning chet tilida kirib kelishi terminologik birliklarning lisoniy tarkibining siljishiga olib keldi. Jumladan, "*Birlashgan Millatlar Tashkiloti*" – "*United Nations*", "*Xavfsizlik Kengashi*" – "*Security Council*", "*Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash*" – "*Economic and Social Council*", "*Nizom*" – "*Charter*", "*Tinch-totuv yashash tamoyili*" – "*The Principle of Peaceful Existence*".

Diplomatik muloqotning maqsadi va holati ifodaning kommunikativ tomonini, shuningdek, uning individual nutqiy harakatlari va janrini belgilaydi. Biroq, kommunikativ komponent har qanday nutqiy ifodaning faqat bir qismidir. Kommunikativ jihat bilan parallel ravishda, til tuzilmalari orqali muhokama mavzusi bilan belgilanadigan kognitiv shakllanishlar ham lisoniy ifodalanadi. Shunday qilib, butun nutqiy jarayon kommunikativ, kognitiv va lisoniy jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu jihatlar birgalikda lisoniy shaxsning tafakkurida individual mavjud bo'lgan va ifoda asosidagi takliflar iyerarxiyasini aks ettiruvchi

¹³ O'sha manba: 10.

¹⁴ Дониш А. Наводир-ул-вақоеъ. – Душанбе: Дониш, 1988. – С. 112-114.

ichki dasturga mos keladi¹⁵.

M. Abdiyevning qayd etishicha, har qanday tushuncha, birinchi navbatda, til birliklarida, ya'ni leksemalarda o'z aksini topadi. Leksemalar esa muayyan qonun-qoidalar asosida yuzaga keladi va til egalari muomalasiga kiritiladi. Bu jarayon bevosita ekstralisoniy va interlisoniy omillarga bog'liqdir. Tilning lisoniy qatlami har doim shu omillar asosida to'ldiriladi¹⁶.

Diplomatik muloqot diplomatik diskurs sharoitida ma'lumot almashtirish jarayoni hisoblanadi. Diplomatik muloqot – bu diplomatik diskurs sharoitida ma'lumot va fikr almashish jarayoni bo'lib, asosan, davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa masalalarda aloqalar o'rnatishda muhim ahamiyatga ega. Diplomatik diskurs, o'z navbatida, diplomatiya sohasidagi til va nutqning o'ziga xos qo'llanish shaklini anglatadi, ya'ni davlatlar o'rtasidagi rasmiy muloqotda ishlatiladigan uslub, til va ma'lumotlarni taqdim etish metodini ifodalaydi.

Ommaviy diplomatik muloqot jarayonida axborot mazmuni tashqi tomondan to'g'ri baholanishi uchun, ma'lum bir kognitiv strategiyalarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, diplomatik diskurs jarayonida muayyan diskursiv shakllarni tanlash mutaxassisning maqsadiga bog'liq. Masalan, diplomatik shaxs tomonidan *“hukumat o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga majbur”* iborasining qo'llanilishi har qanday vaqtda mamlakatlar o'rtasidagi yaxshi munosabatlarning o'zgarishi va dushmanlarga aylanishi mumkinligini tushuntirishga imkon beradi. Agar muloqot jarayonida ushbu fikr *“hukumat oqibatlarga javobgar bo'lolmaydi”* tarziga o'zgartirilsa, demak, bu urushga olib keladigan voqeani keltirib chiqaradigan haqiqiy harakatlarni boshlash uchun to'g'ridan-to'g'ri tahdidni anglatadi¹⁷.

Shuni ta'kidlash kerakki, diplomatiya xalqaro huquq va siyosatshunoslik kabi sohalar bilan chambarchas bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, diplomatiyani siyosatshunoslik bilan bir xil darajada ko'rib chiqish mumkin. Shunday qilib, diplomatik terminlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1) Umumhuquqiy, siyosiy va diplomatik xususiyatlarning xarakterli talqinlariga ega bo'lgan terminlar. Ushbu guruhga quyidagi terminlar kiradi: *“diplomatik munosabatlar”* – *“diplomatic relations”*, *“diplomatik imtiyozlar”* – *“diplomatic immunities”*. Shuningdek, ayrim siyosiy terminlar ham ushbu guruhga kiradi: *“suverenitet (ixtiyoriy hudud)”* – *“sovereignty”*, *“xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi”* – *“selfdetermination of people's and nations”*.

2) Xalqaro huquqqa tegishli terminlar. Ushbu guruhga quyidagi terminlar kiradi: *“qonun manbai”* – *“source of law”*, *“subyekt huquqi”* – *“the right of subjectivity”*. Binobarin, ularning xalqaro huquqiy talqini quyidagi murakkab terminlar yoki iboralarni hosil qiladi: *“shartnoma qiluvchi davlat”* – *“Contracting State”*, *“international security law”* – *“xalqaro xavfsizlik huquqi”*,

¹⁵ Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. 3-е изд. – М.: Смысл; СПб.: Лань, 2003. – С. 114.

¹⁶ Abdiyev M. Sohaviy terminologiyaning sistem tahlili muammolari. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. – B. 49.

¹⁷ Николсон Г. Дипломатическое искусство. – М., 1962. – 82 с.; Ковалев А.Н. Азбука дипломатии. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Международные отношения, 1988.

Diplomatiya sohasidagi hujjatlarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini lisoniy nuqtai nazardan ajratish mumkin: mantiqiylik va rasmiyatchilik, mazmunli taqdimot uslubi, aniqlik, uslub, tuzilish va tarkibning tantanaliligi, diplomatik faoliyat sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan maxsus terminologik birliklardan foydalanish.

Diplomatik yozishmalarning mazmuni va tuzilishi o'rganilayotgan tillardagi boshqa yozuv turlaridan biroz farq qiladi, ammo bu farq unchalik katta emas. Norasmiy yozishmalarda bo'lgani kabi, barcha bir xil elementlar diplomatik xatda mavjud. Shu bilan birga, bunday xatlar faqat diplomatik yozishmalarga xos bo'lgan ba'zi tarkibiy qismlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida ko'pgina tijorat va sanoat korxolarining nomidan keyin *Limited (Ltd): Smith & Co., Limited, The Sheffield Engineering Co., Ltd* kabi qisqartmalarni uchratish mumkin. O'zbek tilida esa "MChJ" qisqartmasi ishlatilish mumkin.

O'zbek tilidan farqli o'laroq, ingliz tilida ismlarning birinchi harflari yoki shaxsning ismi hech qachon uning familiyasidan keyin yozilmaydi, balki doimo uning oldiga qo'yiladi. Ba'zi shaxslarning familiyalariga ergashgan katta harflar qisqartirilgan shaklda yoziladi, bu shaxsning ma'lum bir tashkilotga, unvonga yoki ushbu shaxs mukofotlanadigan buyruqqa tegishli ekanligini bildiradi.

Ko'p hollarda diplomatik yozishmalarda adresantning ismi berilmaydi, balki uning lavozimi yoziladi xolos: *Legal Counsel presents compliments to United Nations Ambassador – Yuridik maslahatchi Birlashgan Millatlar Tashkilotining vakilga hurmatini bildiradi*. Mazkur misol shuni ko'rsatadiki, adresantning vazifalari va imkoniyatlari qabul qiluvchi uchun asosiy va shaxsiy xususiyatlari ahamiyatsiz hisoblanadi.

Diplomatiya tilining o'ziga xos lingvistik xususiyati shundaki, unda o'zlashma so'zlar, ya'ni lotin, yunon va fransuz tillaridan olingan terminlar, moslashuvchan formulalar va yuqori uslubdagi iboralar (diplomatik hujjatlar tili davlat obraziga ta'sir qiladi), frazeologik birliklar, arxaik so'z va iboralar, shuningdek, evfemizmlar faol ishlatiladi. Diplomatik hujjatlarda so'zlarning mantiqiy va obyektiv ma'nolari birinchi o'ringa qo'yiladi. Diplomatik nutq uslubi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, unda metafora, metonimiya qo'llanilmaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**O'zbek va ingliz diplomatik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari**" deb nomlangan. Mazkur bobda chog'ishtirilayotgan tillar diplomatik terminlarining konseptual xususiyatlari, diplomatik diskursida o'zlashma terminlar tadqiqi va ularning semantik xususiyatlari o'rganilgan.

Diplomatik terminlar doirasida sinonimik xususiyatlar ko'p uchraydi. Ingliz tilidagi "*agreement*" (shartnoma, bitim) va "*treaty*" (shartnoma) terminlari bir xil mazmunlarda ishlatiladi. Ushbu terminlar o'rtasidagi farq shundaki, "*agreement*" (bitim) termini asosan davlatlar, ya'ni qonuniy huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan tomonlar o'rtasida majburiy shartnoma tuzishni bildiradi, "*treaty*" (shartnoma) termini esa bunday xususiyatga ega emas. Ya'ni "*agreement*" cheklangan mazmunda rozilikni bildiradi, unda shartlilik xususiyati ko'proq bo'ladi. Biroq, "*treaty*" termini ko'proq rasmiy nutqda faollashadi va davlatlar, hukumatlar yoki davlat rahbarlari o'rtasidagi shartnomaga nisbatan qo'llaniladi.

Mutlaq va nisbatan ko'chma ma'nolarga ega bo'lishiga qaramay, "agreement" termini doimiy ravishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan idoralari o'rtasida tuzilgan majburiy xususiyatlarga ega shartnomalarni, shu jumladan, munosabatlar bitimlari va ixtisoslashgan idoralar, idoralararo shartnomalarni belgilashda ishlatiladi.

Shuningdek, "arrangement" (shartnoma, kelishuv) termini ham mohiyatiga ko'ra "agreement" terminining ekvivalenti hisoblanadi. "Agreement" termini diplomatik sohada "arrangement" terminiga nisbatan aniqroq majburiyatni ifodalaydi, degan fikr mavjud. "Agreement" va "arrangement" o'rtasidagi asosiy farq rasmiylik darajasi va qonuniy majburiylikdir. "Agreement" rasmiy, qonuniy majburiy hujjat bo'lib, unda ishtirok etuvchi tomonlar tomonidan kelishilgan shartlar va majburiyatlar aniq ko'rsatiladi. Boshqa tomondan, "arrangement" – bu tomonlar o'rtasida ishonch va xayrixohlikka asoslangan kamroq rasmiy tushuncha sifatida faollashadi.

Yuqorida keltirilgan terminlar qatorida, xalqaro aloqalar sohasida "agreement" termini o'rnida boshqa bir qator termin va termin-birikmalar analog sifatida qo'llaniladi: "memorandum of understanding" – "o'zaro anglashuv memorandumumi"; "mutual understanding" – "o'zaro tushunish"; "agreed joined statement" – "kelishilgan hamkorlik bayonoti"; "memorandum" – "memorandum"; "joint declaration" – "hamkorlik deklaratsiyasi".

Ayrim hollarda "agreement" (shartnoma) chog'ishtirilayotgan tillarda ikki mamlakat davlat idoralari o'rtasida tuzilgan "qaror" sifatida faollashadi. Bu, birinchi navbatda, vaziyatlarga bog'liq, ya'ni bunday idoralararo bitimlar xalqaro huquq bo'yicha tuzilishi yoki shaxsiy huquqning elementar shartnomasi bo'lishi mumkin.

Tashqi aloqalar yoki diplomatiya sohasidagi "agreement" termini odatda notalar almashinuvi yo'li bilan tuziladigan shartnomalarni anglatadi va "note" – "nota" termini ko'p hollarda "letter" – "xat", "maktub" termini bilan almashtiriladi. "Nota" termini ostida diplomatiya sohasida bir davlat vakilining boshqa davlat vakiliga muvofiqlashtirilishi yoki taklif qilinishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarning batafsil tavsifi keltirilgan maktubi tushuniladi.

Xalqaro hujjatlar diskursi va diplomatik diskurs lisoniy darajada bir qator umumiy xususiyatlarga ega:

1) fuqarolarning rasmiy faoliyati va ma'muriy organlarning faoliyati bilan bog'liq diplomatiya tili so'z va frazeologizmlaridan foydalanish, masalan: "protsedura qoidalari" – "rules of procedure", "o'zini oqlamoq" – "to justify".

Diplomatiya tili davlat, fuqarolik va jinoyat huquqi, mehnat kodeksi, oila kodeksi kabi sohalarning so'z va frazeologik birliklarini ham o'z ichiga oladi: "ma'muriy-hududiy birlik" – "political subdivision", "xodimlarni ishdan bo'shatmoq" – "terminate employees";

2) ishbilarmonlik nutqiga xos so'zlar va iboralardan foydalanish: "hisob-kitob shartnomasi" – "settlement agreement", "vazifalarni ijro etmoq" – "to exercise functions", "diqqat bilan ko'rib chiqish" – "give the consideration";

3) siyosiy nutq bilan bog'liq so'z va iboralardan foydalanish: "milliy va mintaqaviy mexanizmlar" – "national and regional mechanisms", "qurolli

to *‘qnashuv’* – “an armed conflict”, *‘amalga oshirish’* – “implementation”;

4) jamlovchi otlardan foydalanish: *‘hukumat’* – “government”, *‘assambleya’* – “assembly”, *‘hokimiyat’* – “authority”;

5) xalqaro xususiyatlarni o‘z ichiga olgan maxsus lug‘at: *‘aloqa’* – “contact”, *‘millat’* – “nation”, *‘nazorat’* – “control”, *‘barqarorlashuv’* – “normalization”;

6) turli iboralardan foydalanish: *‘oliy ahdlashuvchi tomonlar’* – “high contracting parties”, *‘nomidan va ko‘rsatma bo‘yicha’* – “on behalf and instruction”, *‘sizga ma‘lumot berish vakolatiga egaman’* – “beg to inform you”, *‘men sizga taqdim etaman’* – “I have the privilege to introduce”;

7) ko‘pincha mamlakatlarning davlat tizimini anglatuvchi otlar ishlatiladi: *‘Amerika Qo‘shma Shtatlari’* – “The United States of America”, *‘Chexiya Respublikasi’* – “Czech Republic” va hokazo.

Davlatlararo hujjatlar global xarakterga ega bo‘lib, ularning asosiy maqsadi inson huquqlari va ijtimoiy ehtiyojlari bilan bog‘liqdir. Ular ko‘pincha quyidagi sifat-terminlar yordamida faollashadi: *‘ijtimoiy’* – “social”, *‘global’*, *‘umumjahon’* – “global”, *‘insoniy’* – “human”, *‘fuqarolik’* – “civilian”, *‘poydevor’*, *‘asosiy’*, *‘fundamental’* – “fundamental”.

O‘zbekiston diplomatik terminologiyasiga xorijiy so‘zlarning keng o‘zlashtirilishi, birinchi navbatda, tashqi ijtimoiy omillar ta‘siri bilan bog‘liq. Uzoq muddatli tarixiy taraqqiyot davomida o‘zbek xalqi boshqa xalq va millatlar bilan mustahkam iqtisodiy, madaniy, siyosiy, ilmiy va lisoniy munosabatlarda bo‘lgan. Bunday aloqalar natijasida o‘zbek dabaiy tilining lug‘at tarkibi yangi tushunchalar hamda realiyalar hisobiga boyib bordi¹⁸.

O‘zbek tilining lisoniy tarkibiga kirgan xorijiy terminlar so‘z yasaliş qatorini boyitadi va ruscha so‘zlar bilan semantik munosabatlarga kirishadi. XVI—XVII asrlardagi diplomatik yodgorliklarda qayd etilgan o‘zlashma terminlarning aksariyati rus tilidan o‘zlashtirilgan.

O‘zbek tilining leksik tarkibiga o‘zlashtirilgan eng ko‘p ishlatiladigan arabcha diplomatik terminlar bugungi kunga qadar o‘z ma‘nosini yo‘qotmagan va diplomatiya sohasida qo‘llanilmoqda. Ular qatoriga quyidagilarni misol keltirish mumkin: *‘kotib’* – “secretary”, *‘muzokara’* – “negotiation”, *‘munozara’* – “dispute”, *‘istiklol’* – “independent”, *‘insoniyat’* – “humanity” va hokazo.

Shunday qilib, o‘zbek tili leksikasining o‘zlashma qatlami asosan arab, fors-tojik, rus va u orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan so‘zlardan tashkil topgan. Bu holat diplomatik soha terminologiyasiga ham taaluqlidir¹⁹.

Lotin tili yangi diplomatik terminologiyaning shakllanishida muhim rol o‘ynadi. XVIII asr oxirigacha lotin nafaqat fan tili, balki Yevropadagi xalqaro diplomatik til sifatida faollashgan. Risolalar matnlari lotin tilida yozilgan, shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi og‘zaki muzokaralar ham mazkur tilda olib borilgan. Lotin tilining o‘rnini olgan fransuz tili lotin tilining leksik fondi bilan bir qator umumiylikka ega edi, natijada xalqaro diplomatik terminologiyada sezilarli

¹⁸ Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 100.

¹⁹ Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillarida diplomatik soha leksikasining shakllanishi // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”. – T., 2021, No 6 (41). – B. 79-83.

o'zgarishlar bo'lmadi. XVIII va XIX asrlarda diplomatik lug'atlar asosan lotin-yunon tilidan hamda Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan terminlardan tashkil topgan. Ularga quyidagi terminlarni misol keltirish mumkin: *agent* (*agent*), *akt* (*act*), *asessor* (*assessor*), *argument* (*argument*), *armistiya* (*armistice*), *artikel* (*article*), *auditor* (*auditor*), *audiensiya* (*audience*), *deklaratsiya* (*declaration*), *dokument* (*document*), *garantiya* (*guarantee*) va hokazolar.

Ingliz tilining so'z boyligi Angliya tarixi davomida turli bosqinlar va istilolar, savdo siyosati va qo'shni mamlakatlarning madaniy ta'siri natijasida doimiy ravishda o'zgarib turdi. Ingliz tili diplomatik terminologiyasida ham ko'plab o'zlashma so'zlar mavjud. Ular orasida lotin va fransuz tilidan o'zlashtirilgan terminlar ko'p uchraydi. Diplomatik terminologiyada hanuzgacha qo'llanilayotgan bir qator so'z va iboralarda lotin tilining ta'sirini ko'rish mumkin. Masalan: "*ad hoc*" (special); "*de facto*" (actually); "*inter alia*" (it is sometimes rendered in English as 'including but not limited to'). Lotin tilidan lisoniy o'zlashtirish ko'pincha ikki bosqichda sodir bo'lgan: avval lotin tilidan fransuz tiliga, keyin fransuz tilidan ingliz tiliga kirib kelgan. Quyidagi so'zlar mazkur tarzda o'zlashtirilgan: "*veto*" (from Old French "juge", from Latin "iudex" – one who declares the law); "*fraud*" (from Old French "fraude", from Latin "fraudem" – cheating, deceit).

Sof inglizcha so'zlar qadimiy ingliz tili davridan faollashgan so'zlardir. Biroq, ular lug'atning yarmidan kamini tashkil qiladi. Ingliz-sakson davridagi ingliz tilining diplomatik diskursidagi mahalliy terminlarga quyidagi misollarni keltirish mumkin: "*bequeath*", "*guilt*", "*oath*", "*right*", "*ward*", "*ombudsman*" va boshqalar.

Tadqiqot davomida terminologik birliklar o'rtasidagi polisemiya, omonimiya, antonimiya va sinonimiya kabi semantik munosabatlar o'rganildi. Diplomatik terminlar polisemiyasi, umuman, diplomatiyaning konseptual tuzilishi bilan kesishishi va aloqasini aks ettiradi. Polisemiyaning lisoniy faollashuvi diplomatik terminologiya sohasi birliklariga ham xosdir. Bunday polisemiya turli xil xususiyatlarga ega terminologik birliklarning tarmoqlararo o'zlashishi natijasida shakllanadi. Diplomatiyaning turli sohalarida ma'lum bir termin turli ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Masalan: ingliz tilida "*note*" – 1) nota; 2) eslatma; 3) diqqat, e'tibor; 4) qayd; 5) veksel, banknota; 6) belgi kabi ma'nolarda qo'llaniladi;

O'zbek tilida "*akt*" so'zi 1) akt; 2) harakat, ish; 3) dalolatnoma kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etilgan²⁰.

Chog'ishtirilayotgan tillar diplomatik terminologiyasida sinonimlar asosan ichki va tashqi omillar natijasida shakllanadi. Ma'no xususiyatiga ko'ra, semantik sinonimlar harakat va belgi xususiyatini tavsiflashda ayrim tafovutlar kuzatiladi: "*agreement*" – "*shartnoma*", (*bitim*) – "*contract*" – "*shartnoma*", (*kontrakt*). Masalan, "*agreement*" (shartnoma) termini – bu ikki yoki undan ortiq subyektlar yoki muassasalar o'rtasida biror narsa qilish yoki muayyan harakatlarni bajarishdan bosh tortish majburiyatini mustahkamlaydigan qonuniy majburiy

²⁰ Ahmedov A, Bektemirov H. Ruccha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati. – Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2002. – B. 15.

tuzilgan bitimdir. Bunday shartnomada quyidagi muhim elementlar bo'lishi kerak: taklif va murosa.

“*Contract*” (shartnoma, kontrakt) – bu ikki yoki undan ortiq tomonlar yoki tashkilotlar o'rtasida ularning bir-biriga nisbatan huquqlari va majburiyatlari to'g'risida har qanday kelishuv yoki tushunishni o'z ichiga olgan keng tushunchadir. Bunday norasmiy kelishuvlar ko'pincha “janoblar kelishuvlari” (“*gentlemen's agreements*”) shaklida bo'ladi, shartnoma shartlariga rioya qilish tashqi majburlash vositalariga emas, balki ishtirok etayotgan tomonlarning sharafiga bog'liq bo'ladi. Shartnoma ma'lum bir daqiqada tafakkurlar uchrashuvini anglatadi. Shartnoma biznes, tijorat yoki mamlakatlar o'rtasidagi ichki qarashlarni qamrab olishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, semantik sinonimlar xususiyat yoki harakatning namoyon bo'lish darajasida ham farq qilishi mumkin. Ikkinchi tur, ya'ni stilistik yoki nisbiy sinonimlar uslubiy mansubligi bilan farqlanadi, ya'ni ular nutqning turli funksional uslublarida qo'llaniladi: “*to make a contract*”, “*to conclude a contract*”, “*to sign an agreement*” – “*bitim tuzmoq*”, “*shartnoma qilmoq*”, “*shartnoma imzolamoq*”.

Chog'ishtirilayotgan tillar diplomatik terminlarida antonimiya hodisasi ham faol uchraydi. Ularning ma'nolarida yo'nalish ifodalarini kuzatish mumkin (“*shartnomaga kiritmoq*” – “*enter into the contract*” – “*shartnomadan chiqarmoq*” – “*withdraw from the contract*”). Antonimik terminlar shakliga ko'ra bir ildizli (“*optimist*” – “*optimist*” – “*pessimist*” – “*pessimist*”), ko'p ildizli (“*rasmiy*” – “*official*” – “*norasmiy*” – “*non-official*”) bo'lishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Diplomatik aloqa turlari va diplomatik terminologiyaning struktur tahlili**”ga bag'ishlanadi. Ushbu bobda o'zbek va ingliz diplomatik aloqa turlari va shakllari, bir komponentli va ko'p komponentli diplomatik terminlarning tarkibiy turlari tahlil qilingan.

